



TABIBIY LIRIKASIDA IJTIMOIIY MASALALAR

Dilmurod Asqarov,

O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Orcid:0009-0008-2270-4515

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1704>

MAQOLA HAQIDA/O СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 45

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Ahmad Tabibiy, mumtoz lirika, ijtimoiy masalalar, ijtimoiy-falsafiy tafakkur, devon, muxammas, g'azal, ramziy obrazlar, falak motivi, dahr falsafasi, axloqiy tanqid, ma'rifat va jaholat

ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada Ahmad Tabibiy lirikasida ijtimoiy masalalarning badiiy ifodasi, shoir ijodidagi mavzuviy ko'lam va g'oyaviy yo'nalishlarning evolyutsiyasi adabiyotshunoslikning zamonaviy yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Tabibiy devonlarida uchraydigan ijtimoiy-falsafiy mazmunning ishqiy, diniy-tasavvufiy va ma'rifiy qatlamlar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib berilgan bo'lib, shoir ijodining ko'p qatlamli poetik tizim sifatida shakllanganligi asoslanadi. Maqolada Tabibiy lirikasining tarixiy-adabiy konteksti ham yoritilib, uning yashagan davridagi ijtimoiy muhit, jamiyatdagi adolatsizlik, ma'naviy inqiroz va axloqiy tanazzul kabi omillar shoir badiiy tafakkuriga qanday ta'sir ko'rsatgani ochib beriladi. Shu asosda "falak", "dahr", "zamon" kabi ramziy obrazlar orqali ifodalangan dunyoqarashning ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Tabibiy ijodiga nisbatan shakllangan turli ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilinib, F. G'anixo'jayevning an'anaviy ishqiy talqinlari hamda Sh. Amonovning ko'p qatlamli tasnifiy yondashuvi o'rtasidagi metodologik farqlar yoritiladi. Natijada shoir lirikasini faqat ishqiy doirada emas, balki ijtimoiy ong, falsafiy mushohada va ma'naviy tanqid uyg'unligida o'rganish zarurligi asoslab beriladi. Maqolada Tabibiy muxammaslarining ijtimoiy-falsafiy mazmunda o'rni alohida ta'kidlanib, ularda inson taqdiri, sabr-toqat, ma'rifat va jaholat qarama-qarshiligi hamda jamiyatdagi axloqiy muammolar badiiy ramzlar orqali ifodalangan ko'rsatib berilgan. Shuningdek, shoirning g'azal va muxammaslarida qo'llangan metafora, antiteza va ramziy obrazlar tizimi uning poetik tafakkurining murakkabligini namoyon etadi. Ahmad Tabibiy ijodi o'z davrining ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiruvchi muhim adabiy manba bo'lib, u mumtoz o'zbek lirikasida ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojiga sezilarli hissa qo'shgan. Uning ijodini kompleks va interdisiplinar yondashuv asosida o'rganish mumtoz adabiyotning g'oyaviy-estetik imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 May 2026

Approved: 21 May 2026

Volume: 18-B

Paper number: 45

KEYWORDS

Ahmad Tabibi, classical lyrics, social issues, socio-philosophical thought, divan, muhammas, ghazal, symbolic images, celestial motif, philosophy of the age, moral criticism, enlightenment and ignorance

ANNOTATION

This article analyzes the artistic expression of social issues in the lyrics of Ahmad Tabibi, the thematic scope of the poet's work, and the evolution of ideological directions based on modern approaches to literary criticism. The study shows the inextricable connection of the socio-philosophical content found in Tabibi's divans with romantic, religious-mystical, and enlightening layers, and establishes that the poet's work was formed as a multilayered poetic system. The article also highlights the historical and literary context of Tabibi's lyrics, revealing how factors such as the social environment of his time, injustice in society, spiritual crisis, and moral decline influenced the poet's artistic thinking. On this basis, the socio-philosophical essence of the worldview expressed through symbolic images such as "heaven", "era", and "time" is analyzed. Also, various scientific views on Tabibi's work are comparatively analyzed, and methodological differences between F. Ganikhojayev's traditional romantic interpretations and Sh. Amonov's multi-layered classification approach are highlighted. As a result, the need to study the poet's lyrics not only in the romantic sphere, but also in the context of social consciousness, philosophical observation and spiritual criticism is substantiated. The article emphasizes the role of Tabibi's mukhammas in socio-philosophical content, showing that human destiny, patience, the contradiction between enlightenment and ignorance, and moral problems in society are expressed in them through artistic symbols. Also, the system of metaphors, antitheses and symbolic images used in the poet's ghazals and mukhammas demonstrates the complexity of his poetic thinking. Ahmad Tabibi's work is an important literary source reflecting the socio-cultural life of his time, and he made a significant contribution to the development of socio-philosophical thought in classical Uzbek lyrics. Studying his work on the basis of a comprehensive and interdisciplinary approach serves to further understand the ideological and aesthetic possibilities of classical literature.

Kirish. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Ahmad Tabibiy ijodi o'zining mavzu ko'lami, janriy rang-barangligi hamda falsafiy-badiiy teranligi bilan alohida o'rin tutadi. Shoir devonlari, tazkirasini va boshqa adabiy merosi nafaqat ishqiy-muhabbat mavzularini, balki jamiyat hayoti, inson ma'naviy olami, axloqiy qadriyatlar hamda ijtimoiy munosabatlarga doir dolzarb masalalarni ham qamrab olganligi bilan e'tiborga molikdir. Shu jihatdan Tabibiy lirikasini ijtimoiy masalalar nuqtayi nazaridan o'rganish mumtoz adabiyotning g'oyaviy-badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslikda Ahmad Tabibiy ijodining mavzuviy doirasi haqida turlicha qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotlarda uning she'riyatini asosan ishq-muhabbat mavzusiga yo'naltirilganligi ta'kidlangan bo'lsa, keyingi ilmiy izlanishlarda shoir lirikasida diniy-tasavvufiy, ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy hamda axloqiy masalalar ham keng ifoda etilgani asoslab beriladi. Bu esa Tabibiy ijodini bir yoqlama talqin qilishdan voz kechib, uni kompleks yondashuv asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Ahmad Tabibiy ijodi yuzasidan shakllangan ilmiy qarashlar o'zbek adabiyotshunosligida bosqichma-bosqich rivojlanib, dastlab an'anaviy ishqiy lirika doirasida talqin qilingan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda uning asarlaridagi ijtimoiy, falsafiy va ma'rifiy

qatlamlar ham keng yoritila boshlandi. Bu jarayon mumtoz adabiyotga bo'lgan yondashuvning metodologik yangilanishi bilan ham bevosita bog'liqdir.

F. G'anixo'jayev Tabibiy devonlarini tahlil qilar ekan, ulami tematik jihatdan aniq ajratib bo'lmashligini, asosiy yo'nalish ishqiy motivlar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [1, 15-b.]. Ushbu qarash sovet davri adabiyotshunosligiga xos bo'lib, mumtoz she'riyatdagi ijtimoiy-falsafiy qatlamlarni ikkinchi darajali hodisa sifatida ko'rishga moyil edi. Biroq bu yondashuv Tabibiy lirikasining ichki semantik ko'laminani to'liq ochib bera olmaydi.

Keyingi bosqichda Sh. Amonovning matnshunoslikka asoslangan tadqiqotlari Tabibiy ijodini ko'p qatlamli badiiy tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi. Unga ko'ra, shoir lirikasida diniy-tasavvufiy, ishqiy, ma'rifiy, tabiat tasviri va ijtimoiy-falsafiy mavzular uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi [2, 41-b.]. Bu yondashuv Tabibiy ijodining faqat bir yo'nalish bilan cheklanmaganini, balki murakkab g'oyaviy-estetik tizimga ega ekanini ko'rsatadi.

Mumtoz adabiyotning umumiy poetik tizimi nuqtayi nazaridan ham Tabibiy ijodi an'anaviy g'azalchilik, qit'a va muxammas janrlarida ijtimoiy mazmunning kuchayib borishi bilan ajralib turadi. A. Hayitmetov

klassik she'riyatda ijtimoiy motivlarning badiyilashuvi jarayonini tahlil qilish ekan, mumtoz shoirlar ijodida jamiyat illatlari, axloqiy tanazzul va insoniy qadriyatlar masalasi doimiy ravishda aks etib kelganini ta'kidlaydi [4, 112-b.]. Ushbu fikr Tabibiy lirikasidagi tanqidiy ruh va ijtimoiy mazmunning tabiiy adabiy an'ana mahsuli ekanini asoslaydi.

Shuningdek, B. Valixo'jayevning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga oid tadqiqotlarida ham klassik she'riyatning faqat ishqiy mazmun bilan cheklanmagani, unda jamiyat hayoti, diniy-ma'rifiy qarashlar va falsafiy tafakkur muhim o'rin tutgani qayd etiladi [5, 98-b.]. Bu yondashuv Tabibiy ijodini keng tarixiy-adabiy kontekstda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

N. Karimovning adabiyotshunoslikka oid qarashlarida esa badiiy matnning ko'p qatlamli tizim sifatida tahlil qilish, undagi ijtimoiy va estetik funksiyalarni ajratib ko'rsatish muhim metodologik tamoyil sifatida ilgari suriladi [6, 76-b.]. Ushbu nazariy yondashuv Tabibiy lirikasidagi ijtimoiy mazmunni alohida qatlam sifatida ajratib o'rganishga ilmiy asos yaratadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Ahmad Tabibiy ijodi haqida shakllangan ilmiy qarashlar bir necha bosqichdan o'tgan: dastlab ishqiy lirika ustuvorligi ta'kidlangan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy va axloqiy qatlamlar ham asosiy tahlil obyekti sifatida qaralmoqda. Zamonaviy adabiyotshunoslik esa Tabibiy ijodini kompleks, ko'p qatlamli badiiy tizim sifatida o'rganishni talab etadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda tarixiy-filologik, matnshunoslik va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tarixiy-filologik yondashuv orqali Ahmad Tabibiy yashagan davrning ijtimoiy-madaniy muhiti va adabiy jarayon xususiyatlari o'rganildi. Matnshunoslik metodi asosida shoir devonlari va qo'lyozma manbalardagi ijtimoiy mazmundagi she'rilar tahlil qilindi hamda ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari aniqlashirildi. Qiyosiy-tahliliy metod esa turli adabiyotshunos olimlar qarashlarini solishtirish va Tabibiy lirikasidagi ijtimoiy masalalarning talqin evolyutsiyasini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. Tabibiy devonlari tarkibidagi janrlar rang-barangligi bevosita shoirming g'oyaviy-badiiy maqsadlari hamda u yashagan davr adabiy-estetik tafakkuri bilan uzviy bog'liqdir. Ahmad Tabibiy ijodiga oid ilmiy tadqiqotlarda uning mavzular olami haqida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, bu holat shoir lirikasini turli metodologik yondashuvlar asosida talqin etilganidan dalolat beradi. Xususan, mustaqillikdan oldingi davr adabiyotshunosligida Tabibiy ijodi ko'proq an'anaviy ishqiy lirika doirasida baholangan.

F. G'anixo'jayevning fikricha, Tabibiy devonlari shartli ravishda nomlangan bo'lib, ularni bir-biridan ajratib turuvchi aniq tematik chegaralar yoki g'oyaviy yo'nalishlar deyarli sezilmaydi. Tadqiqotchining qayd etishicha, ushbu devonlarda asosiy e'tibor sevgi va sadoqat, ishq va muhabbat kabi insoniy tuyg'ular ifodasiga qaratilgan bo'lib, ular klassik she'riyat an'analari doirasida yaratilgan [1, 15-b.]. Biroq mazkur yondashuv o'z davrining ilmiy va mafkuraviy sharoiti bilan bog'liq bo'lib, shoir ijodining ichki semantik qatmlarini, ayniqsa ijtimoiy-falsafiy mazmunini to'liq ochib bera olmaydi. Shu sababli Tabibiy lirikasini faqat ishqiy mavzular bilan cheklash uning badiiy tafakkur ko'laminu toraytirib yuboradi.

Mustaqillik davriga kelib, o'zbek adabiyotshunosligida mumtoz merosni qayta baholash, uni kompleks yondashuv asosida o'rganish imkoniyati kengaydi. Natijada Tabibiy ijodiga bo'lgan ilmiy munosabat ham yangilandi. Matnshunos Sh. Amonovning tadqiqotlarida shoir lirikasiga nisbatan ancha keng qamrovli yondashuv ilgari suriladi. Unga ko'ra, mumtoz ijodkorlar she'riyatida faqat ishqiy motivlar emas, balki jamiyat hayotining turli jihatlari ham badiiy talqin etilgan bo'lib, Tabibiy ijodi ham bundan mustasno emas [2, 41-b.].

Sh. Amonov Tabibiy devonlaridagi lirik asarlarni mavzuviy jihatdan tasniflar ekan, ularda diniy-tasavvufiy qarashlar, dunyoviy ishq-muhabbat motivlari, ilm-ma'rifat g'oyalari, hasbi hol xarakteridagi ifodalar, musiqa va san'atga oid qarashlar, tabiat tasviri hamda ijtimoiy-falsafiy muammolar yetakchi o'rin tutishini ta'kidlaydi [2, 41-b.]. Bu esa shoir ijodining bir yoqlama emas, balki ko'p qatlamli va murakkab g'oyaviy tizimga ega ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Tabibiy ijodi faqat g'azalchilik doirasi bilan cheklanib qolmay, balki tazkira, doston va tarjima asarlari orqali ham mumtoz adabiyot taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Bu holat uning ijodiy merosi keng qamrovli ekanini, shoarning nafaqat lirik, balki epik va ilmiy-adabiy faoliyat bilan ham shug'ullanganini ko'rsatadi. Demak, Tabibiy ijodini chuqur va tizimli o'rganish, uning asarlaridagi g'oyaviy-badiiy qatmlarni kompleks tahlil qilish bugungi adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shoir lirikasi mavzusi yuzasidan adabiyotshunos F. G'anixo'jayev umumiy mulohazalarni ilgari surgan bo'lsa, matnshunos Sh. Amonov bu masalaga tizimli yondashuvni taklif etib, Tabibiy she'riyatini mavzuviy jihatdan aniq guruhlariga ajratib o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchining tasnifiga ko'ra, shoir ijodida diniy-tasavvufiy, ishqiy, ilm-

ma'rifat, hasbi hol, musiqa va san'at, tabiat tasviri hamda ijtimoiy-falsafiy yo'nalishlar yetakchi o'rin tutadi [2, 41-b.]. Bunday yondashuv mumtoz adabiyotning ko'p qatlamli mohiyatini ochib berishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi, chunki klassik ijodkorlar merosida inson va olam munosabatlari doimo murakkab falsafiy va badiiy birlikda ifodalaniib kelgan.

Darhaqiqat, mumtoz adabiyot vakillari ijodida faqat ishqiy motivlar emas, balki jamiyat hayotining turli jabhalari ham keng aks etganini kuzatish mumkin. Shu jihatdan Tabibiy devonlaridagi musammat janrida yozilgan she'rilar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu she'rilar ishq-muhabbat mavzusi bilan bir qatorda diniy-ma'rifiy qarashlar, ilmga munosabat, tabiat tasviri hamda ijtimoiy hayot bilan bog'liq muammolar ham badiiy ifoda topgan. Bu esa shoir ijodining mavzuviy doirasi ancha keng va ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi.

Tabibiy ijodida ijtimoiy mazmundagi she'rilar ham sezilarli o'rin egallaydi. Ayniqsa, bu mavzu g'azal, fard, qit'a va ruboiy kabi janrlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir o'z davrining ijtimoiy-axloqiy muammolarini badiiy talqin etar ekan, jamiyatdagi salbiy illatlarni tanqid qilishga alohida e'tibor qaratadi. Uning she'rilarida "tamagirlik", "yolg'onchilik", "riyokorlik", "kibr", "manmanlik" hamda "mol-dunyoga hirs qo'yish" kabi illatlar keskin qoralanadi [2, 45-b.]. Bu holat shoirming faqat estetik maqsad emas, balki tarbiyaviy va ma'naviy vazifani ham ko'zlaganidan dalolat beradi.

Tarixiy-iqtisodiy va ijtimoiy sharoit nuqtayi nazaridan qaralganda, Tabibiy yashagan davrda xalqning turmush darajasi og'ir bo'lib, jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, mahalliy feodal tuzumning zulmi va eksploatatsiya kuchaygan edi. Bunday sharoit shoir ijodida bevosita aks etib, uning she'riy kechinmalarida norozilik ruhining shakllanishiga sabab bo'lgan. Tabibiy o'z davridagi ijtimoiy adolatsizliklarga befarq qaray olmagan ijodkor sifatida, bu holatlarni badiiy vositalar orqali ifodalashga harakat qiladi.

Shoir lirik qahramoni ko'pincha hayotdagi adolatsizliklarni "falak" taqdiri, ba'zi johil amaldorlar yoki bevafo yor obrazlari bilan bog'lab tasvirlaydi. Bu esa mumtoz she'riyatga xos ramziy ifoda usulining namunasidir. Shu orqali Tabibiy ijtimoiy muammolarini bevosita emas, balki badiiy timsollar va metaforik obrazlar orqali ifodalab, o'z davri voqeligi nisbatan munosabatini yashirin va estetik shaklda bayon etadi.

Tabibiy ijodida ijtimoiy mazmunning kuchli ifodalaniishi, uning she'riyatini nafaqat ishqiy-estetik, balki ijtimoiy-falsafiy jihatdan ham muhim manba sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa shoir lirikasining g'oyaviy-badiiy ko'laminu yanada kengroq va chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Quyidagi baytlar Ahmad Tabibiy g'azalining falsafiy-ijtimoiy mazmunini ifodalovchi muhim poetik parcha bo'lib, unda dunyo, inson taqdiri va hayotning beqarorligi haqidagi qarashlar badiiy-falsafiy tizimda aks etgan. Matn mumtoz poetika an'analari doirasida "dah falsafasi"ga xos motivlar asosida qurilgan.

Olamga boqsang, hosili boshdin-oyoq kulfat erur,

Bir rohatining keynida behaddu son mehnat erur.

Baytda shoir olamning mohiyatini tahlil etar ekan, uni boshdan-oyoq kulfatlar majmuasi sifatida tasvirlaydi. Ya'ni, inson hayotida uchraydigan har bir rohatning ortida muqarrar ravishda mehnat, mashaqqat va iztiroblar mavjudligi ta'kidlanadi. Bu yerda "olamga boqish" motivi orqali shoir insonni tashqi ko'rinish bilan cheklanmasdan, hodisalarning ichki mohiyatini anglashga chorlaydi. Mazkur bayt mumtoz adabiyotda keng uchraydigan "dunyo beqarorligi" konsepsiyasining poetik ifodasidir.

Bir oshiqkim lahza topsa visoli dilbarin,

Doim hamul bechoraga, so'ngra g'ami furqat erur.

Navbatdagi baytda oshiq obrazi orqali insonning hissiy va ruhiy holati umumlashtiriladi. Shoir fikricha, oshiq qisqa muddat visol lazzatini his etsa ham, bu holat doimiy emas; aksincha, uning ortidan albatta hijron va ayriliq iztirobi keladi. Bu tasvirda "visol-firoq" antitezasi markaziy poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Oshiqning "bechora" deb ta'riflanishi insonning taqdir oldidagi o'zligi va hissiy tajribalarning o'tkinchiligi bilan bog'liq ekzistensial mazmunni kuchaytiradi.

Yo'qtur jahonga e'timod ushbu jihatdan, ey ko'ngul,

Kim inqilob etmak anga davron aro odat erur.

Baytda esa shoir butun borliq haqidagi umumiy falsafiy xulosaga keladi. U dunyoga ishonchsizlik (e'timodsizlik) g'oyasini ilgari surar ekan, hayotning asosiy xususiyati sifatida doimiy o'zgaruvchanlikni (transformatsiya) ko'rsatadi. Davronning "odat" sifatida o'zgarib turishi inson taqdirining beqarorligi, ijtimoiy va individual hayotning uzluksiz transformatsiya jarayonida ekanligini bildiradi. Bu fikr mumtoz adabiyotdagi "fano va o'tkinchilik" konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Shoir olamni barqaror va ishonchli makon sifatida emas, balki doimiy o'zgarish va iztirob maydoni sifatida talqin qiladi. Bu esa uning she'riyatida ijtimoiy-falsafiy tafakkur va badiiy umumlashtirish kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama. Tabibiy “O‘zgacha” radifli g‘azalining yakuniy baytida shoir lirik qahramonning hijron azobidagi ruhiy holatini yuqori darajadagi badiiy-falsafiy umumlashtirish orqali ifodalaydi. Mazkur misralarda oshiqning yor jamolidan ayrilish tufayli kecha-yu kunduz chekayotgan iztiroblari markaziy o‘rinda turadi.

Mehri jamoli hajrida tun-kun chekib oh,

Bo‘lmish Tabibiy boshig‘a bu dahr zindon o‘zgacha.

Baytda “mehri jamol” va “hajr” tushunchalari visol va ayriqliq qarama-qarshiligi orqali oshiqning ichki kechinmalari kuchaytiriladi. Oshiqning doimiy ravishda “oh va faryod” chekishi uning ruhiy iztirob darajasining yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat mumtoz adabiyotda keng uchraydigan hijron motivining tipik ko‘rinishi bo‘lib, unda insonning hissiy va ma‘naviy azobi poetik tasvir vositasiga aylanadi. Shuningdek, “dahr zindon” metaforasi orqali shoir dunyoni tor, zulmatli va azob-uqubatga to‘la makon sifatida talqin etadi. Bu tasvir mumtoz poetikada uchraydigan dunyoning beqarorligi va foniyligi haqidagi falsafiy qarashlar bilan uyg‘unlashadi. Natijada lirik qahramon uchun olam nafaqat hijron makoni, balki ruhiy jihatdan cheklovchi “zindon” sifatida gavaladanadi. Ushbu bayt Tabibiy ijodiga xos bo‘lgan hissiy intensivlik, metaforik tafakkur va falsafiy umumlashtirish uyg‘unligini namoyon etadi. Shoir hijron azobini individual kechinma darajasidan ko‘tarib, uni umuminsoniy ruhiy holat sifatida badiiy talqin qiladi.

Yoki shoirning boshqa she‘ri:

Ko‘nglumki zulmingdin xarob bo‘lg‘on ajab koshonadur,

Buzg‘on oni ko‘zungdagi ul ramzang mastonadur.

Mazkur baytda Ahmad Tabibiy lirik qahramonning ichki kechinmalari orqali ijtimoiy zulm va shaxsiy iztirob munosabatini badiiy-falsafiy darajada ifodalaydi. She‘r matni mumtoz lirikaning an‘anaviy obrazlar tizimi asosida qurilgan bo‘lib, unda “ko‘ngil”, “zulm”, “koshona”, “ko‘z” kabi ramziy birliklar orqali murakkab semantik qatlam yaratilgan. Misradagi “ko‘ngul” obrazining “zulm” tufayli “xarob bo‘lgan koshona” sifatida tasvirlanishi inson ruhiyatining ichki yemirilishini ifodalaydi. Bu yerda “koshona” metaforasi aslida inson qalbining ramziy ifodasi bo‘lib, tashqi ijtimoiy bosim va adolatsizlik natijasida vayron bo‘lgan ma‘naviy makonni anglatadi. Shoir zulmni faqat tashqi hodisa sifatida emas, balki inson ichki dunyosini yemiruvchi kuch sifatida talqin qiladi. “Ko‘z” obrazi va “ramzang mastona” iborasi orqali zulmning manbai bo‘lgan go‘zallik ochib beriladi. Ya‘ni, bir tomondan bu kuch vayron qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan u joziba va maftunkorlik xususiyatiga ham ega. Bu holat mumtoz adabiyotga xos bo‘lgan antitetik tasvir – ya‘ni bir obrazda qarama-qarshi ma‘nolar uyg‘unlashuvi orqali ifodalanadi.

Tabibiy ijodida ijtimoiy mazmundagi asarlar an‘anaviy ishqiy lirika namunalaridan mazmun va g‘oyaviy yo‘nalish jihatidan sezilarli darajada farqlanadi. Bunday asarlar shoirning faqat shaxsiy hissiy kechinmalarini emas, balki jamiyat hayotiga doir muhim muammolarni ham qamrab olishi bilan ajralib turadi. Shu bois Tabibiy ijodidagi ijtimoiy yo‘nalishdagi she‘rlar keng qamrovli fikrlash, falsafiy umumlashtirish va dolzarb hayotiy masalalarni badiiy talqin etish xususiyati bilan e‘tiborga loyiqdir.

Shoir lirikasida ijtimoiy mavzuga oid musammalar miqdor jihatidan garchi ko‘p bo‘lmasa-da, mazmun nihoyatda salmoqli ahamiyat kasb etadi. Ular orqali Tabibiy o‘z davrining ijtimoiy-axloqiy muammolarini yoritib berish bilan birga, insoniy qadriyatlar, milliy tafakkur, ma‘naviy poklik va ruhiy barkamollik kabi g‘oyalarni ham ilgari suradi. Bu jihat shoirning ijodiy pozitsiyasi faqat estetik emas, balki ma‘naviy-tarbiyaviy yo‘nalishga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, ijtimoiy mazmundagi she‘rlarning asosiy qismi muxammas janrida yaratilgani diqqatga sazovordir. Muxammaslar mavzu va g‘oya jihatidan keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, bandlar o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqlik orqali yaxlit falsafiy xulosa chiqarishga xizmat qiladi. Tabibiy muxammaslarida ham ana shu xususiyat yaqqol namoyon bo‘lib, har bir band mantiqiy jihatdan oldingi fikrni to‘ldiradi va umumiy g‘oyaviy markazga bo‘ysundiriladi.

Shu bilan birga, shoirning musammal shaklidagi boshqa asarlarida ko‘proq ishqiy kechinmalar, diniy-tasavvufiy qarashlar, falsafiy mushohadalar hamda tabiat tasviri yetakchi o‘rin tutadi. Biroq muxammaslarida ijtimoiy-falsafiy fikrlar nisbatan ustunlik qiladi va unda insonning o‘zligini anglash, hayot sinovlariga sabr bilan yondashish, taqdirga munosabat kabi masalalar badiiy talqin etiladi.

Quyida keltirilgan muxammasda shoir insonning ichki dunyosi, taqdirga munosabati va sabr-toqat tushunchasi orqali hayotiy haqiqatlarni falsafiy umumlashtirishga harakat qiladi. Ushbu asarda lirik qahramonning ruhiy kechinmalari orqali insonning hayot sinovlari oldidagi ma‘naviy barqarorligi va o‘zlikni anglash jarayoni yoritib beriladi.

Ranj-u mehnat xirmanin boshimg‘a xarvor aylading,

Dahr gulzorin ko‘zimga uylakim xor aylading,

Alg‘araz kelguncha qo‘ldin javr-u ozor aylading,

Ey falak, nettim sani dushmanlig‘ izhor aylading,

Notavon ko‘nglum tunganmas g‘amg‘a duchor aylading (270).

Mazkur muxammas Ahmad Tabibiy ijodining ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishini yorqin namoyon etuvchi muhim poetik namunadir. Asar Feruz g‘azaliga bog‘langan taxmis shaklida yaratilgan bo‘lib, unda shoir individual kechinmalar orqali umuminsoniy muammolarni badiiy-falsafiy umumlashtirish darajasiga ko‘taradi. Muxammasning markaziy g‘oyasi hayotning beqarorligi, taqdirning shafqatsizligi va insonning bu sinovlar oldidagi ruhiy holatini ifodalashdan iboratdir.

Birinchi bandda “ranj-u mehnat”, “javr-u ozor” kabi poetik birliklar orqali hayotning og‘ir yuklari metaforik tarzda ifodalanadi. “Xirman” obrazi esa yig‘ilgan tashvish va mashaqqatlarning to‘planishini bildiruvchi ramziy timsol sifatida xizmat qiladi. Shoir “dahr gulzori”ni “xor” holatda tasvirlar ekan, dunyoning tashqi go‘zalligi ortida yashiringan azob va mashaqqatlarni fosh etadi. Bu yerda kontrast (zid qo‘yish) usuli kuchli estetik vosita sifatida qo‘llanib, hayotning paradoksal mohiyatini ochib beradi.

“Ey falak” murojaati orqali esa mumtoz adabiyotga xos bo‘lgan kosmik determinizm g‘oyasi ifodalanadi. Falak obrazi shoir ijodida taqdir, ijtimoiy tartib va ilohiy irodaning ramziy timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning “nettim sani dushmanlig‘ izhor aylading” degan savol shaklidagi murojaati esa lirik qahramonning ichki isyonini, adolatsizlikka nisbatan ruhiy qarshiligini ifodalaydi. Shu bilan birga, bu holat insonning taqdir oldidagi o‘jizligi bilan birga uning ma‘naviy chidamliligini ham ko‘rsatadi.

Boshqa bir bandda ham shoir taqdirga shikoyat ruhini davom ettirib, hayotning achchiq haqiqatini o‘ziga xos usullar va badiiy vostiolar yordamida tasvirlaydi: go‘zallik va ezgulik o‘rmini ba‘zan qabihlik va yovuzlik egallaydi. Bu esa inson istaklarining doim ham ro‘yobga chiqmasligini, taqdirning inson xohish-irodasiga zid ravishda ish tutishini anglatish tasviri yetakchilik qiladi:

Olam ichra kimki oqildur san oning dushmani,

O‘rtanur zulming o‘tig‘a doimo jon-u tani,

Bilmadim yo bevafo deb shikva qildimmu sani,

Solibon ayru malaksiymo habibimdin mani,

G‘ulsurat, devsiyaratlar bila yor aylading (270).

Ikkinchi bandda ijtimoiy-falsafiy mazmun yanada chuqurlashadi. Shoir “oqil” insonlarning jamiyatda ko‘pincha dushman sifatida ko‘rilishini ta‘kidlab, ijtimoiy adolatsizlik va ma‘rifatning qadrsizlanishi muammasiga ishora qiladi. Bu fikr mumtoz adabiyotda keng uchraydigan “haqiqat va jaholat qarama-qarshiligi” motivi bilan bog‘liqdir. Shoir tasvirida oqil insonning iztirobi faqat shaxsiy emas, balki jamiyatning ma‘naviy holati bilan ham bevosita aloqador. “Zulm o‘ti” va “jon-u tan” obrazlari orqali ichki ruhiy kuyish holati kuchli dramatik tasvirga ega bo‘ladi. Bu yerda iztirob faqat hissiy holat emas, balki ekzistensial og‘riq darajasiga ko‘tariladi. Shoir dunyodagi go‘zallik va ezgulikning vaqtinchalikligini, uning o‘rmini ba‘zan qabihlik va yovuzlik egallashini ta‘kidlab, hayotning axloqiy beqarorligini ochib beradi. Shuningdek, “malaksiymo” va “devsiyarat” kabi antitetik obrazlar orqali inson munosabatlaridagi ziddiyatlar ifodalanadi. Yor obrazining o‘zgaruvchanligi esa insonning hissiy tajribalaridagi beqarorlikni ramziy tarzda ifodalaydi. Bu esa mumtoz poetikadagi “visol-hijron”, “vafo-bevafo” qarama-qarshilik tizimining davomidir. Ushbu muxammasda Tabibiy ijodiga xos bo‘lgan falsafiy mushohada, ijtimoiy tanqid va badiiy ramziylik uyg‘unlashgan. Shoir o‘z shaxsiy kechinmalarini umumlashtirish orqali jamiyatdagi ma‘naviy inqiroz, adolatsizlik va insonning taqdir oldidagi o‘jizligini chuqur poetik ifoda etadi. Shu jihatdan mazkur asar nafaqat ishqiy-falsafiy lirika namunasi, balki ijtimoiy ong va badiiy tafakkur uyg‘unlashgan muhim adabiy manba sifatida ham ahamiyatlidir.

Xulosa. Ahmad Tabibiy lirikasini, xususan ijtimoiy-falsafiy mazmundagi asarlarini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, shoir ijodi faqat an‘anaviy ishqiy mavzular bilan cheklanib qolmagan, balki o‘z davrining ijtimoiy, axloqiy va ma‘naviy muammolarini ham chuqur badiiy talqin etgan murakkab poetik tizimga ega. Uning g‘azal, muxammas, qit‘a va boshqa janrlardagi asarlarida jamiyatdagi adolatsizlik, taqdirning beqarorligi, insonning ruhiy iztiroblari hamda ma‘rifat va jaholat o‘rtasidagi ziddiyatlar markaziy o‘rinni egallaydi. Shoir ijodida “falak”, “dahr”, “zamon” kabi ramziy obrazlar orqali inson hayotining o‘tkinchiligi va beqarorligi falsafiy umumlashtirish darajasiga ko‘tariladi. Shu bilan birga, Tabibiy lirikasida insonning ichki kuchi, sabr-toqati va ma‘naviy barqarorligi ham ulug‘lanadi. Bu esa uning she‘riyatini nafaqat pessimistik kayfiyat, balki umuminsoniy qadriyatlariga yo‘g‘rilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan boyitadi. Tabibiy ijodi o‘z davri ijtimoiy muhitining badiiy in‘ikosi bo‘lib, unda shoir shaxsiy kechinmalari orqali jamiyatning keng muammolarini yoritib bergan. Uning lirikasini kompleks yondashuv asosida o‘rganish mumtoz adabiyotning g‘oyaviy-badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'anixo'jayev F. Ahmad Tabibiy (hayoti va ijodi). – Toshkent: Fan, 1978. – B.15.
2. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo'lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. – Toshkent: Bookmany Print, 2023. – B.41–45.
3. «Munisul-ushshoh», qo'lyozma manba, inv. №3461.
4. Hayitmetov A. Mumtoz adabiyotda g'oya va uslub masalalari. – Toshkent: Fan, 1980. – B.112.
5. Valixo'jayev B. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – B.98.
6. Karimov N. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2010. – B.76.
7. Asqarov, D. (2026, February). SULTONXON TO 'RA ADO IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI. In *Conferences* (Vol. 2, No. 1, pp. 165-172).
8. Asqarov, D., Abdullaev, H., Yanova, E., Axmedov, M., Safarov, T., Samiyeva, G., ... & Kabilov, K. (2026). Proactive Educational Frameworks for Early Diversion and Learning Support to Prevent Criminal Justice Involvement for Vulnerable Youth. *Journal of Intellectual Disabilities and Offending Behaviour*, 17(1), 46-56.
9. Qobilova Z. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021.
10. Shokirova, M., Kobilova, Z., Juraeva, L., & Uzakova, O. (2025). Linguistic ecocide and environmental collapse in the suppression of Uzbek language. *Cogent Social Sciences*, 11(1). <https://doi.org/10.1080/23311886.2025.2592975>
11. Rahmonov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
12. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: Cho'lpon, 1995.
13. Yusupov M. Mumtoz poetika va badiiy tafakkur. – Toshkent: Universitet, 2015.
14. Karimov N. XX asr bosh o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon. – Toshkent: Fan, 2009.
15. Abdug'afurov A. O'zbek klassik she'riyati poetikasi. – Toshkent: Fan, 1989.
16. Hodi Zarif. O'zbek adabiyoti tarixi masalalari. – Toshkent: Fan, 1977.
17. Shomurodov A. Matnshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2012.
18. Sodiqova D. Mumtoz lirika va ijtimoiy tafakkur. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
19. Hayitmetov A. Mumtoz adabiyotda g'oya va uslub masalalari. – Toshkent: Fan, 1980.
20. Asqarov D. Amiriy va muxammasnavislik an'anasi. – Toshkent, Tafakkur, 2025. – 85 b.